

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SON VA SANOQ
TUSHUNCHASINI O'RGATISH METODIKASI**

Hazratkulova Lobar To'rabek qizi

mustaqil izlanuvchi tadqiqotchi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish va uning o'ziga xos jihatlari, shuningdek o'quv jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari haqida metodik ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, matematika, metodika, usul va metodlar, o'qitish jarayoni, dars mashg'uloti, o'quvchilar, bilim, amaliy ko'nikma va malakalar.

Kirish qismi. Dunyoda ta'lim jarayoni haqida gap ketar ekan, boshlang'ich ta'lim ta'lim sifatining ilk qadami hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik tafakkur nuqtai nazaridan boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayoni faqat fan mazmunini bayon etish yoki nazariy tushunchalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoni o'quvchini raqamlar bilan faol muloqotga kirishishga, uni anglash, tahlil qilish va talqin etish orqali shaxsiy munosabatini shakllantirishga yo'naltiruvchi murakkab didaktik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda o'quv topshiriqlari boshlang'ich ta'lim o'qitishining asosiy vositalaridan biri bo'lib, ular o'quvchi bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi o'quvchining matematik amallarni idrok etish darajasini, uning estetik sezgirligi va tafakkur faolligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli o'quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasi boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda amiq


fanlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari bilan uzviy bog‘liq holda qaralishi zarur. Bu jarayon boshlang‘ich ta‘limning maqsad va vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni, o‘quvchi shaxsining rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda didaktik yondashuvlarni yangilashni taqozo etadi.

O‘quv predmeti sifatida matematika o‘qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Umumiy metodika boshlang‘ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo‘limni o‘qitishning o‘ziga xos xususiy metodlarini o‘rgatadi. Xususiy metodika matematika o‘qitishning asoslangan metodlarini va o‘qitish formalarini, shuningdek, o‘quv faoliyatini tashkil qilish yo‘llarini ko‘rsatadi, amalda bajarishga yo‘naltiradi. Ma’lumki, o‘qitish tarbiyalash bilan o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Biz boshlang‘ich ta‘limda **son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari mavzusini o‘qitishda** matematika ta‘limi, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, analitik ko‘nikmalarini va amaliy matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha bo‘lgan davrda bolalar dastlab sanashni o‘rganadilar. Ularga ko‘rgazmalilik asosida narsa va predmetlarning sano g‘i o‘rgatiladi. Ikkala jarayob ham bir-nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Natijalar. Sanoq tushunchasini o‘rganish bosqichlarida quyidagilarga e‘tibor qaratamiz.

Birinchi bosqich: sanoq tushunchasi bilan tanishtirish: Sanoq tushunchasini shakllantirish jarayoni, avvalambor, o‘quvchilarga narsalarni sanashni o‘rgatishdan boshlanadi. O‘quvchilar turli narsalarni sanab, ularning sonini aniqlashni o‘rganadilar.

1-rasm.



1- Rasm. Bolalarda raqamlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga sinfda joylashgan buyumlarni sanab berishni taklif qilishi mumkin. Bu o‘quvchilarga sanash jarayonining amaliy ko‘nikmalarini mustaqil ravishda mustahkam rivojlantirishda yordam beradi.

Ikkinchi bosqichda: sanoqni o‘rgatuvchi metodlari: Sanoq tushunchasini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi turli metodlardan foydalanishi mumkin. “Sanash o‘yini” yoki “narsalarni sanash” kabi faoliyatlar orqali o‘quvchilar sanashni tezda o‘rganadilar. O‘yinlar orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshadi va ularning diqqatini jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jarayon o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini yanada kuchaytiradi va amaliy ko‘nikmalari shakllanadi.

Uchinchi bosqichda: Amaliy sanoq mashqlarining ko‘rinishi: O‘quvchilarni amaliy sanoq mashqlari bilan shu g‘ullantirish juda muhimdir. Misol uchun, o‘quvchilarga turli vaziyatlar taqdim etilishi mumkin, masalan, savdo do‘konida xaridlar yoki bayramda mehmonlarni sanash. Bunday

amaliyotlar o'quvchilarning sanash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni matematik amallar bilan bo'g'lashga imkon yaratadi.

To'rtinchi bosqichda: sanoq va sonlarni birlashishi: O'quvchilar sanoq jarayonida hosil bo'lgan natijalarni sonlar orqali ifodalashni o'rganishlari zarur. O'qituvchi o'quvchilarga sanoqdan olingan natijalarni matematik amallar orqali qanday ifodalashni ko'rsatishi kerak. Bu bosqichda o'quvchilar sanashni nafaqat amaliy, balki matematik jihatdan ham tushunishadi. O'quvchilar, shuningdek, turli matematik vazifalarni hal qilishda sanoq va sonlar o'rtasidagi bo'g'liqlikni tushunadilar.

Natijalar. Shuningdek, sonlar tushunchasini o'rganish bosqichlariga e'tibor qaratamiz: Birinchi bosqich: **Asosiy tushunchalarni o'rganish.** Sonlar tushunchasini o'rganish jarayoni avvalambor, nol va musbat butun sonlarning asosiy mohiyatini tushunishga asoslanadi. O'quvchilarga raqamlar chizi g'i yordamida bu tushunchalarni ko'rsatish zarur. Raqamlar chizi g'i o'quvchilarga sonlarning bir-biri bilan bo'g'liq o'rnini ko'rsatadi, masalan, nolning o'rnini musbat sonlar va manfiy sonlar o'rtasida markaziy bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi raqamlarni ko'rsatish va ular yordamida sonlarni qanday ifodalashni o'rgatishi muhimdir.

Ikkinchi bosqich: Raqamlar va sonlar o'rtasidagi aloqani o'rganish. Bu bosqichda o'quvchilarga raqamlar va sonlar o'rtasidagi farq tushuntiriladi. Raqamlar — bu sonlarni ifodalash uchun ishlatiladigan belgilardir. Masalan, 5 raqami "besh" sonini ifodalaydi. O'quvchilar raqamlar yordamida sonlarni qanday yaratish, ularni yozish va o'qish jarayonida qanday qoidalar mavjudligini o'rganadilar. Ushbu jarayon o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini yanada kuchaytiradi.

Uchinchi bosqich: Sonlarni taqqoslash va tizimlashtirish. O'quvchilarga sonlar o'rtasidagi taqqoslashni o'rganish muhimdir. O'quvchilar sonlarning kattaligini qanday aniqlashni, qaysi biri katta yoki

kichik ekanligini tushunishlari kerak. Raqamlar chizi g'idan foydalanish bu jarayonni osonlashtiradi. O'qituvchi o'quvchilarga turli misollar keltirib, sonlarni tartiblash va ularni to'g'ri joylashtirishni o'rgatishi lozim. Bu bosqichda o'quvchilar raqamlar o'rtasidagi farqni aniq belgilay olishadi.

To'rtinchi bosqich: Arifmetik amallarni o'rganish. Sonlar tushunchasini shakllantirish jarayonida arifmetik amallar, ya'ni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rganish zarur. O'quvchilar ushbu amallarni bajarish orqali sonlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'qituvchi amallarni bajarishda qanday natijalar hosil bo'lishini, ular qanday qo'llanilishini va arifmetik operatsiyalarni o'rganish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirishi kerak. Bu jarayonda turli xil amaliy misollar va mashqlar orqali o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa va takliflar. Son va sanoq tushunchalarini shakllantirish jarayoni o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'quvchilarni matematik fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'zaro muloqot qilishga o'rgatish, ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli o'rganishlariga xizmat qiladi. Son va sanoq tushunchalari o'quvchilarning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va ularni kelajakdagi ta'lim jarayonlariga tayyorlaydi. Matematik ta'lim jarayonida sonlar va sanoq tushunchalarini mustahkamlash orqali o'quvchilar hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda matematik bilimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni Toshkent shahri, 2017-yil 7- fevral PF - 4947.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // ”Xalq so‘zi” gazetasi., 2017-yil, 16-iyun.
- 3.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”gi qonunlari. // T.: “Sharq”, 1997
4. N. Muslimov, M. Usmonboyeva “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” Toshkent – 2015
- 5.Mamatqulov, A. N. (2019). Kasbiy ta’limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. (Uzbekistan), (12 (85)).
- 6.Библер Б.С. (1990). Нравственность. Культура. Современность/БС Библер. М.: Мысл.